



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligida arxiv ishini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-sentabrdagi PF-5834-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 5-apreldagi 101-son hamda "Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 24-avgustdagি 538-son qarorlariga asosan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining ish yuritish hujjatlari qiymatini ekspertizadan o'tkazish, ularni tanlash va arxivda saqlashga tayyorlash ishlarini tashkillashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining idoraviy arxivni to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi Markaziy ekspert komissiyasi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi Markaziy ekspert komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, vazirlikda arxiv ishini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 1999-yil 30-oktabrdagi 482-son hamda "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 5-apreldagi 101-son qarorlari talablari asosida tashkil etiladi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlari mazkur buyruqdan kelib chiqib o'zlarining ichki hujjatlarni ishlab chiqilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirining 2012-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligida arxiv ishini yuritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 117-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yuborilishini ta’minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rribbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “7”-noyabr,
534 -son